

QORAQALPOG‘ISTONDAGI TURKIY TILLARNING ALOQALARI XUSUSIDA

Yu.M.Ibragimov

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI

O‘zbek tili kafedrasida f.f.d., professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10408200>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sheva va dialekt xususiyatlarning paydo bo‘lishiga uzoq davrlar davomida madaniy-iqtisodiy aloqalarning o‘rnatib kelgan qo‘shni xalqlar ta’siri va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zbeklar tiliga xos bo‘lgan shevalarda uchraydi so‘zlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘z va iboralar: madaniy aloqalar, dialektlarning paydo bo‘lishi, shevalar o‘rtasidagi farqlar, adabiy tilda uchramaydigan so‘zlar, sheva so‘zlari, umumturkiy so‘zlar.

ABOUT THE RELATIONS OF TURKIC LANGUAGES IN KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article talks about the influence of neighboring peoples who have established cultural and economic relations for long periods of time on the appearance of dialect and dialect features, and about the words that appear in the dialects of the Uzbek language in the Republic of Karakalpakstan.

Key words and phrases: cultural relations, emergence of dialects, differences between dialects, words not found in the literary language, words found in dialects, common Turkish words.

О ВЗАИМОТНОШЕНИЯХ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Аннотация. В данной статье говорится о влиянии соседних народов, установивших культурные и экономические связи на длительные периоды времени, на появление диалекта и диалектных особенностей, а также о словах, которые появляются в диалектах узбекского языка Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова и фразы: культурные связи, возникновение диалектов, различия между диалектами, слова, не встречающиеся в литературном языке, диалектные слова, общетюркские слова.

Markaziy Osiyoda Janubiy Orolbo‘yi (Qoraqalpog‘iston) mintaqasi qadimdan jo‘g‘rofiy o‘rni, tabiiy sharoiti qulay, tarixiy voqealarga nihoyatda boy, jahon fani va madaniyati taraqqiyoti xazinasiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan buyuk alomalar, fozilu fuzolalar, olimu ulomalar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan, odamlar doimiy yashab kelgan go‘shalardan. Ular muayyan hududda qadimdan o‘tiroq hayot kechirib, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanib kelgan. Ushbu muqaddas va tabarruk maskanga turli tarixiy sabablarga ko‘ra keyin kelib turkiylashgan ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi urug‘-qabilalarning aralashuvi natijasida etnik tarkibi murakkablashdi. Bunday murakkab tarixiy-etnografik jarayon aloqa-aralashuv vositasi bo‘lgan tillarida ham ifodasini topgan. Masalan, o‘zbek xalqi tarkibidagi qo‘ng‘irot, qipchoq, nayman, mang‘it, no‘kis, no‘g‘ay, do‘rman, xitoy, qurbanoq, qiyot, qatag‘on, qarg‘asha, qo‘lop, uyshun, kanagas, qangli, kinik, xonjig‘ali, qo‘shamg‘oli, kerait, jaloyir, juvondir, qirq, bichanak, bolg‘ali, bayot, ochamoyli, avshar, chandir, ming, yuz, mitan, maylibolta, tartuvli, ko‘ko‘zakli, sarsan, sag‘ir, saxtiyan, saripo‘stun, uyg‘ur, taz, qorachekmon, qorapoq singari urug‘-qabila nomlarining ko‘pi mintaqadagi qoraqalpoq, qozoq, turkman xalqlari o‘rtasida ham uchraydi.

a) o'zbek adabiy tilidagi oltita unli fonema o'rnida o'zbek tili o'g'uz-qipchoq lahjasi va qarindosh turkiy tillarda 9-10 unli fonema mavjud: **ə, a(o), i, i', , y, u, o, (o')**;

b) o'zbek shevalari va turkiy tillarda unlilar tizimi singarmonizm qonuniyatining tanglay ohangdoshligi qonuniyatiga izchil amal qiladi;

v) o'zbek tili o'g'uz va qipchoq lahjasi hamda turkiy tillarda singarmonizmning lab ohangdoshligi qonuniyati so'zning ikkinchi bo'g'inidan nariga o'tmaydi: *tynymən* tuni bilan, *qolum//qolim qo'lim, kynym:kunim* uchun kəməchimə kyl tartaman(maqol). Ommaviy axborot vositalar, adabiy til ta'sirida singarmonizm qonuniyatining buzilish hollari ortib bormoqda: xo'j., qo'ng'. *ədrasman* isirig', *qizmətkar* xizmatkor, *bələqada* baloqazo; qqalp. *arbakesh* aravakash, *xizmetkar, bələqada* bassah ayaq astinda (maqol).

g) o'zbek adabiy tilidagi lablangan **o'** fonemasi o'zbek tilining o'g'uz-qipchoq shevalari va turkiy tillarda mustaqil til oldi yumshoq **o** xamda til orqa qattiq **o** fonemalarga bo'linadi: *bəz bez* paxtadan to'qilgan mota, *bəl bo'lmoq, ajratmoq, bələk bo'lak, parcha, o'zga*; shevada til orqa, qattiq o(o') fonemasi: *boz bo'z er, ekin maydoni, bosh bo'sh yumshoq, mayin. bol (bo'l) tugat, tamom qil bas qil*;

d) mintaqadagi shevalar hamda hozirgi turkiy tillarning konsanantizmi o'zbek adabiy tilidan miqdor jihatdan kam farq qilsa ham, sifat jihatdan bir muncha tafovut qiladi: o'zbek adabiy tilida so'z boshida til o'rta **y** undoshi qo'llanganda, mazkur shevalarda **dj** affrikati; qoraqalpoq, qozoq tillarida toq (sof) **j** undoshi qo'llanadi: shevada *djilqi yilqi, djeti etti, djorg'a yo'rg'a, djambash yonbosh. djurt yurt*; qqalp. *jilqi, jeti, jorg'a, janbas, jurt* va boshqalar.

e) so'z boshida kelgan **l, r** undoshlari oldidan **i, i, y, u** tor unlilaridan biri (proteza) orttiriladi: *iri:m rahim; uluqsat\uruxsat ruxsat; ilay loy, ilaqa laqa baliq, uluqman luqmon hokim*;

yo) intervokal va anlaut holatda **k-g; q-g'** undoshlarining almashinish hodisvsi keng tarqalgan: *gəzip kezib, gybi kuvi, gynji kunjut, kymish/gymish kumush, gyrəsh kurash, gərək ko'sak*;

j) so'zning boshida o'rta-keng **o, o(o'), e(e)** va lab-lab tor **u, y** unlilari o'zbek tilining qipchoq lahjasi va qoraqalpoq, qozoq tillarida **vo, vø, ye, ie** shaklida diftongdashadi: *votin o'tin, voqlav uqlav, voraq o'roq; vərməjək o'rgumchak, vəzək o'zak, vətirik yolg'on; yel/iel el, yechki\iechki echki, yelək\ielək elak* va h. Janubiy Xorazm, Samarqand viloyati g'arbiy shevalari nayman, g'allorol, yuqori Qashqadaryo qipchoq tur shevalarida diftonglashish hodisasi salmoqli o'rin tutadi. N.A.Baskakovning fikricha, so'z boshida **o, o, e(e)** unlilarining diftonglashuvi qoraqalpoq tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turuvchi xususiyat. Bu fonetik hodisa gagauz, qo'miq, qorachoy-bolqar tillarida ham kuzatildi;

z) so'z boshida jarangli lab-lab **b** undoshi jarangsiz **p** undoshiga almashinadi: o'zb. xo'j., qo'ng'.: *put but, pytin butun, pichqi bichqi, pichip bichib*: qqalp. *put, pytin, piship*;

k) so'z boshida **b-m** mosligi keng tarqalgan: o'zb. xo'j., qo'ng'.: *миңа bunga. maqmal baxmal., moyin (buyun)*; qqalp. *bug'an, maqpal, moyin*;

l) b-m mosligi hodisasi affikslarda ham sodir bo'ladi: *bag'man bog'bon. tərəzman tarozbon, miyriman mehribon*, qqalp. *bajman bojbon bag'man, bajban, tərəzman, miyirman*;

m) o'zbek adabiy tilida ayrim so'zar tapkibida **sh** undoshi talaffuz etilganda, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida **ch** undoshi aytiladi: *bachchi boshchi, quchchi qushchi*,

qochchi qo‘shchi; qqalpoq, qozoq. tillarida **s, sh** undoshi qo‘llaniladi: qqalp. sali, qo‘si. samal, shigin, shimshiq;

n) lab-lab **v** undoshi **y** undoshiga almashinadi: o‘zb. xo‘j., qo‘ng‘.: *syyməgəngə* sevmaganga *sykənmə*; qqalp. *syymegenge* syykenbe va boshqalar.

k) hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *uvol* so‘zi sheva va qoraqalpoq tilida *vobal* tarzida talafuz etiladi.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari fonetik tizimiga e‘tibor qaratsak, ularda so‘z boshida ham jarangli, ham jarangsiz undoshlarni qo‘lash imkoniyatiga ega. Ammo bu hodisaning o‘rni turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tili va shevalarida bir xilda emas. Masalan, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining sharqiy I tur oraliq guruhida so‘z boshida jarangli undoshni ishlatishga moyillik kuchli bo‘lsa, g‘arbiy va II tur oraliq guruhida, aksincha, jarangsiz undoshni qo‘llash keng tarqalgan.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda ko‘pgina o‘ziga xos o‘zgachiliklar o‘rin olgan, u yoki bu shevaning tarkalgan aholi punkiti joylashuv o‘rni, ma‘lum tarixiy sharoiti, aholi etnik tarkibining xilma-xilligiga bog‘lik ko‘pgina fonetik hodisalar, morfologik shakllar, leksik o‘zgachiliklar vujudga keldi. Bularning barchasi o‘rganilayotgan sheva vakillarining o‘zaro va qardosh turkiy xalqlar bilan asrlar davomida aloqa-munosabatda birga yashaganliklaridan darak beradi. Shu boisdan, ikki tur lahja vakillari bir xildagi morfologik shakllarni bema‘l qo‘llayveradi: *ulim yeddindjida uoqiydi: sig‘irdi apaḥ savg‘an bosa, deshana apchiq; avziḥa qarap sollə, kan yig‘liyverme, gəziḥ qizarip ketadi* va boshqalar. Bu holat ko‘pincha o‘g‘uz va qipchok sheva vakillarining aralash yoki yonma-yon, chegaradosh joylashgan qishloklarida kuzatildi. Ushbu o‘rinda A.B.Jo‘raevning «sof qorluq, sof qipchoq, sof o‘g‘uz shevasi yo‘q» - degan fikrini keltirish joiz.

Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida egalik affiksi vazifasini **-jigi** formanti bajaradi. Uning qo‘llanilish doirasi cheklangan, u faqat *barcha, hamma* belgilash olmoshlari doirasida uchinchi shaxs egalik affiksi **-si** ning vazifasini bajaradi: *həmməjigi* hammasi; *bərijigi* barchasi;

Qoraqalpog‘istonning to‘rtko‘l-ellikqal‘a shevasida **-chiki** fonetik varianti qo‘llaniladi: *bərchiki* barchasi; *həmməchiki* hammasi. Janubiy Xorazm dialektining xeva-urganch shevasi va Buxoro dialekti qorako‘l shevasida **-chiki**; qorako‘l shevasining Sayot, Ziyorat qishloqlari aholisi nutqida **-djigi**: *həmmədjigi uxleyen* hammalari uxlagan. I.Shamsuddinov **-djigi** affiksini o‘g‘uzcha deb hisoblab, uni turk tilidagi erkalash-kichraytirish ma‘nosini ifodalovchi **-sig‘|chig‘** qo‘shimchasi bilan aloqador, degan fikrni bildiradi. Fors-tojik tilida ham **-chiz** hammasi ma‘nosidadir, uning **-chi** qisqargan shakli ham mavjud. (Rastorgueva 1963, 214). Biroq buni toflar tilidagi **-cheiche**, fors-tojik tilidagi **-chiz** (narsa, **-chi** formantlarining ayrim o‘zbek shevalaridagi **-djigi|chiki**) bilan aloqadorligini semantik jihatdan izohlash qiyin. Fikrimizcha **-djigi|chiki** formanti III shaxs egalik affiksi **-si** va mavhum egalik shakli **-niki** qo‘shimchasining birikishidan hosil bo‘lgan. Ma‘lumki, mavhum egalikning qadimgi shakli hisoblangan. So‘zboshida **-si** shaklidagi **s-j** bilan va **-ki** formanti tarkibidagi **k** undoshining **g** jarangli undoshi bilan almashinuvi ro‘y bergan. Chunki almashinuvchi **s, j** undoshlarining qo‘llanilishi va ikki unli tovush orasida kelgan jarangsiz **k, q** undoshlarining **g, g‘** shaklida jaranglilashuvi g‘arbiy qipchoq tur shevalar guruhi uchun odatdagi holat: **s-dj**: *savchi–djavchi, sildji–djilish, səvkildəp: shəvkildəp:djəvkildəp* hayajonlanib. Shuningdek, shevalarda **-djigi, -chiki** formanti **-djiginiki, -chikiniki** hamda **-siniki**

shaklida yuqorida qayd etilgan olmoshlar tarkibida baravar ishlatiladi. Bu ushbu shakllarning bir manbadan tarqalganligiga bog'liq yuzaga kelganligini izohlaydi. Ba'zan orzu-istak, xohish ma'nolari zaruriyatga aylanadi. Bunday vaziyatda ish harakatni bajarishga istak, zaruriyat tug'ilganligi boshqa shaxs tomonidan iltimos qilingan ma'no anglashiladi. O'zbek tili yangibozor, gurlan-beruniy shevalarida *-g'ayli\g'ayli; -kayli/qayli; -mak+kerak\maq -kerek\maq+gerak* shakllari orqali ifodalanadi: *aytqayli: aytish kerak, ichqeyli\ichmak kerak* va boshqalar. Hozirgi qoraqalpoq, qozoq tili shevalarida ham faol qo'llanadi. A.Nurmag'ambetov qozoq tili g'arbiy shevalar guruhidagi *-g'ayli* qo'shimchasining mavjudligini qoraqalpok tili ta'siri bilan bog'layli. N.A.Baskakov bu qo'shimchaning fe'lga qo'shilganda anglatadigan ma'nosi va uning qadimdan qo'llanidib kelayotganligini ta'kidlaydi.

Mazkur ishevalarda *-g'ayli* qo'shimchasi bilan gurlan-beruniy.: *-ish\ishkerak kerak;* xo'jayli-qipchoq. *-uv\yv+ kerak;* qo'ng'iroq. *-uv\yv+tiyish;* to'rtko'l-elikqala.: *-maq+garak;* *-maqliq garak* kabi analitik shakllar baravar qo'llanadi. Toshovuz viloyatidagi o'zbek shevalarida *-mali\mali* murakkab qo'shimchasi yuqorida ko'rsatilgan formalarning barchasi o'rnida qo'llana oladi: *aytmali* –aytish kerak; *ichmali* – ichish kerak kabi. Bu holatda *-mali\mali* qo'shimchasi qo'shilgan fe'llar, kesim vazifasida keladi, adabiy til nuqtai nazardan olib qaraganda murakkab kesimning, aniqroq qilib aytganla *-ish\ish* qo'shimchasi orqali yasalgan harakat nomi bilan kerak. zarur modal so'zlari bilan birikib kelib predikativlashganda anglatadigan ma'nosi o'rnida qo'llanadi. Bu holatda qo'pincha *-mali\mali* qo'shimchasi III-shaxs shaklida qo'shiladi-da, o'zidan keyin boshqa qo'shimchalarning birikib kelishini talab qilmaydi.

Xullas, o'zbek tilining qipchoq lahjasi, xususan, hozirgi turkiy tillar bilan qiyoslash, taqqoslash natijasida ular o'rtasida umum etnolingvistik aloqalar mavjudligi aniqlandi. *Birinchi*dan, o'zbek tilining o'g'uz-qipchoq lahjasi va hozirgi turkiy tillarda ham singarmonizm qonuniyatining tanglay qonuniyati saqlangan, *ikkinchi*dan, unlilar tizimi ham bir-biriga yaqin, mos keladi, *uchinchi*dan, nutq tovushlari turli xil kombinator-pozision o'zgarishlarga duch keladi, *to'rtinchi*dan, o'zbek adabiy tilidagi shevalarda so'z oxiri jarangli yoki jarangsiz undosh bilan bitganda, undoshning xarakteriga ko'ra kelishik, egalik, affikslar progressiv assimilyasiyaga duch keladi: *-tin\tin;* *-din\din;* *--ti\ti;* *-di\di;* *-kə/qa;* *-gə\g'a tən//tan;* *-dən/dan* kabi. Turkiy tillarning qadimgi yodgorliklari tilida ham keng qo'llangan; *beshinchidan*, nutq jarayonida ikki narsa-buyum o'rtasidagi qiyos mantiqan anglashilib turganda *-raq, rak, -rek; -lav, -lən, -lev, -sav, -chil\chil* affikslari qatnashadi, *oltinchi*dan, shaxs-son, zamon ko'rsatkichlari anglatgan ma'nolari, vazifasi ham o'zaro bir-biriga yaqin. Bunday yaqinliklar, o'xshashliklar turkiy xalqlarning qadimiy aloqa munosabatlari natijasidir.

REFERENCES

1. Abdullaev F.A. Xorazm shevalari. –Toshkent: O'zakadnashr.1963.
2. Backakov N.A. Karakalpakskiy yazik. T.II, ch.1.-M., 1952,411 s.
3. Valiev M. Naymanskiy govor uzbekskogo yazika: Avtoref. diss.kand.filol.nauk.-Samarkand. 1963, -28 s.
4. Djuraev A.B. Arealnaya lingvistika, Sushnost i struktura [\Sov.](#) Tyurkologiya.-1988.-№6. –S.21-27.
5. Jo'raev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. -Toshkeng: Fan.1969,168 b.

6. Ishaev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. –Toshkent: Fan. 1977.
7. Muxamadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. –Toshkent: Fan.1983.166 b.
8. Nurmag‘ambetov A. Qazaq tili govorlariniñ batis tobi. –Almati: G‘ilim, 1976, 217 b.
9. Radlov V.V. Vvedenie k izlojeniyu tyurkskix yazikov. SPb. 1906, 45 s.
10. Reshetov V.V. O‘zbek shevalarining klassifikasiyasi \O‘zbek tili va adabiyoti. 1966. - №1. –B.11.
11. Trofimova T.A. Drevnee naselenie Xorezma po dannim planeoantropologii. –M.: Izd-vo. AN SSSR, 1950. -264 s.
12. Sherbak Grammaticheskiy ocherk yazika tyurkskix tekstov X-XIII vv. Vostochnogo Turkestana. –M.: Izd-vo AN SSSR, 1961.- 204 s.
13. Ibrohimov S. O‘zbek tilining andijon shevasi. –Toshkent: Fan. 1967. -126 s.